

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI TADBIRKORLIGINI TASHKIL ETISHNING USLUBIY NAZARIY ASOSLARI

Adham Ergashovich Mengnarov
Termiz davlat universiteti o`qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Davlat xususiy sherikchilining nazariy asoslari va iqtisodchi olimlar tomonidan keltirilgan ta`riflar berilgan. Shuningdek, mamlakatimizdagi davlat-xususiy sherikchiligi mahalliy hududan kelib chiqqan holda bir necha turlarga ajratilgan.

Kalit so`zlar: Davlat, sherikchilik, xususiy tadbirkorlik, modernizatsiya, kichik biznes, Fiskal cheklovlar, xususiy mulk, davlat mulki.

ABSTRACT

This article presents the theoretical foundations of public-private partnership and definitions given by economists. Also, public-private partnership in our country is divided into several types depending on the locality.

Keywords: State, partnership, private enterprise, modernization, small business, Tax restrictions, private property, state property

KIRISH

Mustaqilligimizning so`ngi yillarida tadbirkorlikka keng yo`l ochilmoqda. Bu esa o`z navbatida qo`shimcha ish o`rnilarini yaratib fuqoralarning turmush darajasiga ijobiy tasir o`tkazmoqda. Tadbirkorlikning oqilona yo`lga qo`yilishi hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivijlanishiga turtki bo`ladi. Shunday ekan tadbirkorlikning huquqiy asoslarini yaratib berish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Iqtisodiyotda kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi va mulk ulushida xususiy mulkning ustuvorligi aholini ijtimoiy himoya qilishning ayrim sohalarida, inovatsion faoliyatni rivojlantirishda, oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlash kabi bir qator tarmoqlarda davlat va xususiy mulkning hamkorligini talab etadi. Shu jarayonda davlat xususiy sherikligi yuzaga keladi. Shu o`rinda hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmoishlar Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 26-aprelda qabul qilingan 2019-yil 3-mayda "Davlat-xususiy sheriklik to`g`risi"dagi qonun ma`qullangan, O`zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-apreldagi 259-sonli "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish

to'g'risi"dagi qarori, O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish va ularni moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi qarori ayni muddaodir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Keling, shu o'rinda iqtisodchi olimlarning Davlat-xususiy sherikchiligi(DXSH) tushunchasiga bergan ta'riflarni keltirib o'tamiz.

Tadqiqotchi S.E.Elmirzaev ta'kidlaganidek "DXSH Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida DXShgi mamlakat va hududiy miqyosidagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning samarali vositasi bo'lib, davlat va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan nazoratni ushlab turish va xususiy sektor bilan samarli iqtisodiy hamkorlikni o'rnatishga qaratilgan investitsion loyihalarga mablag'lar jalb qilish va amalga oshirish vositasi hisoblanadi. DXSh asosidagi investitsion loyihalarda xususiy sektor davlat tomonidan belgilangan shartlar va talablar asosida investitsion loyihalarni moliyalashtirish va boshqarish vazifalarini amalga oshiradi".

Yana bir iqtisodchi olimlardan U.I.Djumaniyazov fikriga ko'ra "DXSH – amaldagi qonunlar doirasida davlatning uzoq muddatli strategik vazifalari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli xil iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa tavakkalchiliklar, xavf-xatarlar, risklarni taqsimlash asosida xususiy sektor bilan aholi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, kerak bo'lsa, siyosiy ahamiyatga molik ob'ektlarni qurish yoki shu asnodagi ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish uchun xususiy sektor bilan amalga oshiradigan tom ma'nodagi o'zaro manfaatli aloqalaridir."

Shuningdek, rus olimi A. Beliskayani fikriga ko'ra "Davlat-xususiy sektor hamkorligi-davlat hokimiyati organlari va tashkilotlari va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining bevosita davlat manfaatlari va nazorati sohasidagi ob'ektlarga nisbatan o'zaro manfaatli hamkorligi, muhim davlat va jamoat ahamiyatiga ega bo'lgan loyihalarni samarali amalga oshirish maqsadida hamkorlar o'rtasidagi xavflarni taqsimlashni nazarda tutadi" deb ta'riflagan.

Bundan tashqari quyidagi jadvalda iqtisodchilarning DXShga bergan ta'riflarini keltiramiz.


	DXSH	Muallif
1	<p>DXSh - bu davlat boshqaruvi organi va xususiy sektor o'rtasida maxsus boshqaruv kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan, davlat infratuzilmasini yaratish va unga asoslangan xizmatlarni ko'rsatish maqsadida taqdim etilgan uzoq muddatli o'zaro manfaatli shartnomadir.</p> <ul style="list-style-type: none"> • davlat va xususiy sektorlarning moddiy va nomoddiy resurslaridan foydalaniladi; • xatarlar, javobgarlik, huquq va imtiyozlar davlat va xususiy sektor o'rtasida taqsimlanadi; • natijaga qo'yiladigan talablar davlat tomonidan belgilanadi. 	Reznichenko N.V.
2	<p>Davlat-xususiy sheriklik - bu davlat va xususiy sektorning davlat va kommunal mulk ob'ektlariga, shuningdek, ijtimoiy va ma'muriy organlar, muassasalar va korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan va ko'rsatiladigan xizmatlarga nisbatan o'zaro ta'sirining qonuniy ravishda mustahkamlangan shakli. iqtisodiy faoliyatning keng doirasidagi loyihalar</p>	Varnavskiy V.G
3	<p>DXSh (davlat-xususiy sheriklik) temir yo'l loyihasi kabi yuqori boshlang'ich kapitalni talab qiladigan har qanday investitsiyalarda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda DXSh o'zining afzalliklari tufayli mashhurlikka erishdi. Hukumat nuqtai nazaridan, DXSh moliyaviy qiymatni yaratish va operatsion xavfni xususiy biznesga taqsimlash uchun ishlatilishi mumkin.</p>	Jessada Sresakoolchai, Sakdirat Kaewunruen[8]
4	<p>Fiskal cheklovlar, davlat qarzlarning yuqori darajasi va yetarli mablag` yetishmasligi ko'pincha kam daromadli va rivojlanayotgan mamlakatlarning infratuzilma ehtiyojlarini moliyalashtirishning muqobil usullarini izlashiga sabab sifatida ko'rsatiladi. Davlat-xususiy sherikligi (DXSh) «xususiy tomon va davlat idorasi o'rtasida davlat aktivi yoki xizmatini ko'rsatish bo'yicha uzoq muddatli shartnoma, bunda xususiy tomon kata tavakkal va boshqaruv javobgarligini o'z zimmasiga oladi.</p>	Hakan Yurdakul, Rifat Kamaşak, Tülay Yazar Öztürk[7]

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda DXSH ni mahalliy hududa va mintaqamizdan kelib chiqqan holda quyidagicha ifodalash mumkin.

DXSh bu – Davlat va muayyan sektor tomonidan davlat infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda yoki modernizatsiya qilish uchun ikki tomonlama tuzilgan aniq muddatli shartnomadir.



1-rasm



DXSH ning turlari

XULOSA

DXSh ning afzalliklaridan biri yangi ish o`rni yaratib, o`sha hududning iqtisodiy-ijtimoiy infrastrukturasi yaxshilaydi. Shuningdek, sohaning ushbu sohadagi harajatlarni qisqartirib, iqtisodning raqobatbardoshligini oshiradi. Hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida DXSH ning o`rni katta. Bu iqtisodiy o`shish hudud transporti va kommunikatsiya,



ishlab chiqarish, sanoat obektlari infratuzilmasi va aholining bandligini oshirishga yordam beradi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasiprezidenti-shavkat-mirziyevning-oliy>, 28.12.2018
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 26-aprelda qabul qilingan 2019-yil 3-mayda “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risi”dagi qonun. <https://lex.uz/docs/-4329270>
3. O‘zbekiston Respublikasining Davlat-xususiy sherikligi to‘g‘risidagi O‘RQ-537-son Qonuni. 2019 yil 10 may. <https://lex.uz/docs/4329270>
4. Elmirzaev S.E., Shavkatov N.Sh. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining ilg‘or xorij tajribalari va mamlakatimizda qo‘llash istiqbollari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 3, iyun, 2019 yil
5. Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich. Davlat-xususiy sherikchiligi asosida korporativ boshqaruvni rivojlantirishning ayrim nazariyuslubiy masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2017 yil
6. Белиская, А.В. Правовые формы государственно–частного партнерства в России и зарубежных странах / А.В. Белиская // Предпринимательское право. – 2009. – №2. – С.21–27.
7. Hakan Yurdakul, Rifat Kamaşak, Tülay Yazar Öztürk, Macroeconomic drivers of Public Private Partnership (PPP) projects in low income and developing countries: A panel data analysis Borsa Istanbul Review, 2021, <https://doi.org/10.1016/j.bir.2021.01.002>(<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2214845021000028>)
8. Jessada Sresakoolchai, Sakdirat Kaewunruen, Comparative studies into public private partnership and traditional investment approaches on the high-speed rail project linking 3 airports in Thailand, Transportation Research Interdisciplinary Perspectives, Volume 5, 2020, <https://doi.org/10.1016/j.trip.2020.100116>.